

DORI VOSITALARI TURLARI VA YANGI DORI VOSITALARINI YARATISH TEXNOLOGIYALARI. ELEKTRON RETSEPT TIZIMIGA O'TISH

Ihomova Feruza Sherali qizi

Toshkent Farmatsevtika Instituti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada dori vositalari nima ekanligi, yangi dori turlarini yaratishdagi turlicha islohotlar va farmatsevtika sohasida retsept va uni elektronlashtirishning ahamiyati haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *retsept, substansiya, biosintez, ekstraksiya, mikroorganizm, narkoz, emperik.*

Kirish: Dori vositalari- kelib chiqishi tabiiy yoki sun'iy bo'lgan, bir yoki bir nechta substansiyalar va yordamchi moddalar asosida hosil qilingan, kasallillarning oldini olish, tashxis qo'yish va davolash uchun qo'llashga ruxsat etilgan vositalar. Ular jumlasiga immunobiologik, radiofarmatsevtik va parafarmatsevtik preparadlar, gemoepatik, tashxis qo'yish va sterelizatsiya vositalari kiradi. Farmatsiya amaliyotida ishlatiladigan dori turlari juda ko'p va xilma-xil. Ularda tabiatiga ko'ra yoki biron-bir kimyoviy modda yoki bir nechta boddalar aralashmasidan tashkil topgan yig'indi preparatlari bo'lishi mumkin. Birinchi turdagi moddalar asosan sintez yo'li bilan olinadigan dorivor moddalar bo'lib, Ular oddiy yoki murakkab sintez natijasida olinadi. Tabiatda uchraydigan dorivor o'simliklar va hayvonot olamidanda ajratib olinadigan farmakologik faol moddalar ham shu guruxga kiradi. Tabiiy antibiotiklar ham shu guruxni to'ldiradi. Ikkinchi guruh preparatlari ham juda ko'p bo'lib, ular yig'indi preparatlar deb ham yuritiladi. Bularga asosan dorivor o'simliklar homashyosidan ma'lum bir usullarda ajratib olinadigan, har xil kimyoviy tabiatga ega bo'lgan farmakologik faol moddalar saqlovchi ajratmalar galen preparatlari(ekstraktlar, tindirmalar, sharbatlar, xushbo'y suvlar) kiradi.

Nima uchun chet davlatlarining dori vositalariga bo'lgan talab katta?

Yangi dori moddalarini yaratilishi va tibbiyotga taqbiq etilishi turli soha, jumladan, farmatsevtik kimyo, farmakologiya, biologiya va tibbiy fanlar olimlarining hamkorligiga olib brogan ilmiy izlanishlarning samarali natijasidir.

Dori preparatlarini yaratish ancha murakkabdir, bu faqat uning olinish jarayoniga bog'liq bo'lmay, balki farmakologik samaraligiga ko'p turli omillarning ta'sir ko'rsatishidir. Hozirgacha tabiiy manbalardan va sintez yo'li bilan olingan kimyoviy birikmalar ko'p bo'lishiga qaramay, tibbiyot amaliyotida ularning juda ham kam qismi ishlatilmoqda. Dori moddalarining yaratilishi bu murakkab jarayon bo'lib, bu jarayon to dori moddaning olinish g'oyasidan boshlab to uning dorixonaga yetib borgunga qadar bo'lgan barcha bosqichlarni o'z ichiga oladi. Dori moddalarining noxush qo'shimcha ta'siriga ega ekanliklari, ya'ni allergiya, bemorlarning u yoki bu dori moddasini ko'tara olmasliklari, dori moddalarga mikroorganizmlarning barqarorligini

tobora ortib borishi, bularning hammasi yangi dori moddalarini yarish va borlarini takomillashtirishni taqazo etadi. Masalan kuchli og'riq qoldiruvchi vositasi bo'lgan morfin va promedol dori moddalarini olaylik. Bu dorilarning noxush taraflaridan biri bu ularga kasallarning o'rganib qolishi va ularning zaharliligi. Yurak hirurgiyasi, neyroxirurgiya sohalarining rivojlanib borishi narkoz uchun gangliobloqatorlar, analgetiklar va boshqa hususiyatga ega dorilarni yaratishni talab etiyapti. Dori preparatlarining shakli uning ta'sir darajasi bilan bog'liq omil hisoblanadi, ya'ni dori preparatlariga fizik-kimyoviy hossalari, uning ta'sir doiralari hisobga olinmay shakl berilsa, bunday dori ta'sir ko'rsatmaydi yoki kam tasir ko'rsatadi. Natijada dori preparati kasalga hech qanday naf bermaydi bekorga sarflangan bo'ladi. Iste'mol tavarlari orasida dori alohida o'rin egallashini eslatib o'tish kerak. Dori iste'molchi tomonidan sifatini aniqlash mumkin bo'lmagan tovar hisoblanadi. Bu narsa dorishunoslik sohasida ishlaydigan har bir shaxsga va ayniqsa, dori texnologiyasi bilan shug'ullanadigan texnologlarga alohida mas'uliyat yuklaydi. Hozirgi kunda yangi dori vositalarini yaratish borasidagi izlanishlar quyidagi asosiy yo'nalishlarda olib boriladi:

1. Emperik usul
2. To'la yoki qisman sintez usul
3. Gen muxandisligi usuli.
4. Klips usuli
5. Kopyuter kimyosi

Har bir yo'nalishda o'ziga xos usulda dori vositalari yaratiladi va har bir usulning o'ziga xos kamchilik va afzalliklari bor. Har bir yo'nalish dori yaratishda muhim hisoblanadi. Yangi yaratilgan dori vositalari ma'lum tajriba sinovlar ya'ni allergiya keltirib chiqarmasligi, boshqa dori vositalari bilan qanday tasirga kirishi, organizmga ta'siri, qo'shimcha komponentlardan holiligi sinovlaridan o'qaziladi va halolliligi tasdiqlangach, yangi dori vositasi sertifikatlanadi va yaratuvchi tomonidan ishlab chiqarishga topshiriladi. Dori vositalarini markalash, idishlarga joylash-o'rash va ularning tashqi bezagiga doir qoidalar O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Elektron retsept tizimiga o'tish haqida gapirishdan oldin, retsept nima ekanligi haqida qisqacha eslab o'tsak. Retsept bu- shifokorning dorixonaga ma'lum shakldagi yozma murojati, unda dorini tayyorlash va berish shuningdek undan qanday foydalanish haqidagi ko'rsatmalar bo'ladi. Retsept siyoh bilan yozilishi shart. Unda bemorning ism sharifi va yoshi korsatilishi, tashkilot va shifokorning muhri bo'lishi shart. Retsept yuridik hujjat bo'lib, dorilarning to'g'ri tayyorlanganligi, muddati va boshqalarini tekshirish imkonini beradi. Farmatsevt shifokor tayinlagan retsept asosida dorilarni berishi shart. Ayniqsa asab tizimiga ta'sir etuvchi ayrim psextrop dorilari faqat maxsus retseptlar asosida ayrim tashkilotlatga beriladi. Hozirgi vaqtda soxta retseptlarning ko'payishini oldini olish va kantrabandaga chek qo'yish maqsadida, raqamli texnologiyalar davrida elektron retsept tizimiga o'tish yo'lga qo'yilmoqda. Bu haqida sog'liqni saqlash vaziri vazifasini bajaruvchi Asilbek Xudayarov tibbiyot va

farmatsevtika sohalari vakillari bilan o'tkazilgan ochiq muloqotda ma'lum qilgan. Bunda fuqarolar o'zlariga kerakli dori darmonni qat'iy belgilangan narxda faqat „Dori-darmon“ dorixonasidan emas, xohlagan dorixonasidan olish huquqiga ega bo'ladi. Ushbu islohot prezidentimizning yil boshidagi farmatsevtika hohasiga raqamli texnologiyani kiritish haqidagi takliflari asosida tashkil etilgan. Ushbu islohodan ko'zlangan maqsadlardan biri bu chet davlatlaridan noqonuniy kirib kelgan ro'yhatdan o'tmagan ya'ni kantrabanda mahsulotlarining savdosiga chek qo'yish va har bir dori vositasini asl narxida sotilishini nazoratga olish, qalbaki dori vositalaridan saqlanishdan iborat. Ishonch hosil qilib aytish mumkinki bugungi kunda dori vositalariga bo'lgan talab yetarlicha oshgan. Bunga ekologiyadagi turli o'zgarishlar, shovqin kuchining ortayorganligi, ozon qatlaminin yemirilishi va turli virusli kasalliklarning ko'p tarqalayotganligini misol qilib ketirishimiz mumkin. Ba'zi insonlar profilaktika sifatida ham turli vositalarini kunlik qabul qilishlari bor gap, bilib, bilmay qabul qilingan har qanday dori vositasi kerakli natijani bermasligi va teskari ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday holatlar kuzatilmasligi uchun avvalo shifokor tavsiyasi va dori yo'riqnomasi bilan tanishgan holda dori vositalaridan foydalanish zarur.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, farmatsevtika sohasiga yangiliklar kiritish, yangi dori vositalarini yaratish biotexnologlar oldidagi eng muhim vazifasi hisoblanadi. Yangi dori vositalarini yaratishda tabiiy preparatlardan foydalanish, chiqindisiz texnologiyani qo'llash esa kasb egalari yana bir yutug'I bo'lib xizmat qiladi. Chet davlatlarida rivojlanib ulgurgan, ishni osonlashtiruvchi biotexnologik uskunalari, yangicha yondashuvlarni O'zbekistonda ham qo'llash orqali ko'plab yaxshi natijalarga erishish mumkin. Maqsad dori sonini ko'paytirish emas insonlarni davolash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Maxkamov S.M, Maxmudjonova K.S. Tayyor dori turlari texnologiyasi. Toshkent 2010.
2. SH. SH. Talipova. SH.N.SHodmonova.SH. S.Yo'ldosheva. D.S. Muhammadjonova. Dori turlari texnologiyasi. Toshkent 2012.
3. F.S. Jalilov, G.U.Tillayeva., M.K.Usmonova. Dori vositalarini sifatini nazorat qilish. Darslik . Toshkent 2020.
4. V.N.Abdullabekova, Q.A.Ubaydullayev,A.N.Yunusxodjayev. Dori vositalarini sifatini ta'minlash. O'quv qo'llanma. Toshkent 2016.
5. A.N. Yunusxo'djayev, I.K. Azizov., G.M. IsmoiLOVA. Dori vositalarining zamonaviy tahlil usullari. Toshkent 2010.

FOYDALANILGAN INTRNET HAVOLALARI:

6. <https://medlife.uz/encyclopedia/r/retsept/?ysclid=m2ygtsf2lo927119122>